




Uztelecom — Barchaga texnologiyalar

Kontekst

Uztelecom — Oʻzbekiston boʻylab 12 milliondan ortiq abonentni birlashtiruvchi milliy telekommunikatsiya operatori. Kompaniya qariyb 300 000 kilometr optik tolali liniyalarga ega va mamlakatdagi aholi yashaydigan hududlarning 98 foizidan ortigʻini optik tarmoqlar bilan qamrab oladi.

Bu koʻlam ortida juda koʻp mahsulotlar, xizmatlar va kommunikatsiya mavzulari turadi: mobil va statsionar aloqa, uy interneti, televideniye, bulutli yechimlar, raqamli servislar, infratuzilmaviy loyihalar, shuningdek, biznes va davlat tashkilotlari bilan ishlash.

Yechim

«Barchaga texnologiyalar» gʻoyasiga asoslangan yangi pozitsiyalashuv kommunikatsiyani xizmatlar tilidan inson ehtiyojlari tiliga oʻtkazadi. Brend endi tarif yoki texnik koʻrsatkichdan emas, texnologiyaning odamlarga yashash, ishlash, oʻqish, muloqot qilish va oʻzini ishonchliroq his etishda qanday yordam berishidan boshlanadi. Shu asosda B2C uchun yagona verbal va vizual tizim yaratildi, B2B va B2G kommunikatsiyalari esa qayta koʻrib chiqildi.

Tanish toʻlqin brendning asosiy tanib olinish elementi sifatida saqlab qolindi, biroq faol kommunikatsiya vositasiga aylandi: u eʼtiborni yoʻnaltiradi, raqamli kommunikatsiyada ritm yaratadi, signal tarqalishini vizuallashtiradi va 3D obyektlar uchun asos boʻladi. Geometrik jihatdan aniq ishlangan belgi, Uztelecom logotipi, TT Turns VF variativ shrfti, koʻk palitra, gradientlar, ikonografika, fotostil va shaffof shishadan yaratilgan 3D obyektlar yagona tizimni tashkil etadi. 3D obyektlar koʻzga koʻrinmaydigan texnologik qatlamlarni — maʼlumotlar, signal va infratuzilmani — vizuallashtiradi, fotostil esa real odamlarni markazga qaytaradi. Xabarlar modulli prinsip asosida tuziladi va interfeys yoki postdan tortib bilbord, LED-ekran va fasadgacha boʻlgan formatlarga moslashadi.

Bu mantiq retailbook hujjatida jismoniy muhitda ham davom etadi. Uch format — flagman ofis, franshiza nuqtasi va shop-in-shop — «Jonli toʻlqin» konsepsiyasi ostida birlashtirilgan. Riflyoniy shisha belgining plastikasini davom ettiradi, pandjaraning zamonaviy talqini raqamli kelajakni mahalliy kontekst bilan bogʻlaydi, texnologik aniqlik va iliq materiallarning uygʻunligi esa ofisni rasmiy xizmat koʻrsatish punktidan raqamli mehmondoʻstlik makoniga aylantiradi.

Vazifa

Muammo axborot yetishmasligida emas edi. Aksincha, brend tushuntirishi kerak boʻlgan narsalar haddan tashqari koʻp edi. Avvalgi aydentika Uztelecomni yirik texnologik infratuzilma sifatida yaxshi ifodalardi, biroq bu infratuzilmaning inson hayotidagi maʼnosini koʻrsatishga yordam bermasdi.

Kommunikatsiya koʻpincha tarif, tezlik, gigabaytlar soni yoki texnik xususiyatdan boshlanardi — holbuki, har bir xizmat ortida aniq hayotiy vaziyat turadi.

Kimdir ish uchun barqaror internetga muhtoj. Kimdirga farzandi uchun xavfsiz aloqa kerak. Kimdir butun oila uchun yagona yechim izlaydi. Biznesga esa shunchaki tezlik emas, jarayonlarning uzluksizligiga ishonch kerak.

Vazifa milliy operatorga murakkab texnologiyalarni tushunarli insoniy foydaga aylantira oladigan va raqamli kanallarda, bosma materiallarda, tashqi reklamada hamda jismoniy muhitda birdek ishonchli ishlaydigan yagona tilni berishdan iborat edi.

Natija

Shunchaki yangi aydentika emas, balki milliy miqyosdagi brend uchun kommunikatsiya tizimi yaratildi.

U tariflar haqida hayotiy ssenariylar orqali, texnik yangilanishlar haqida ishonchlilik hissi orqali, raqamli servislar haqida aniq foyda orqali, yirik loyihalar haqida esa ularning odamlar va mamlakat uchun ahamiyati orqali gapirish imkonini beradi.


Bir xil prinsip barcha darajalarda ishlaydi: interfeys, ijtimoiy tarmoq, reklama xabari, bosma material, tashqi reklama konstruksiyasi, ofis, fasad va hududiy xizmat koʻrsatish nuqtasida.

Uztelecom yirik texnologik kompaniyaning murakkabligi va insoniy kommunikatsiyaning soddaligini birlashtira oladigan tilga ega boʻldi.


Endi brend har bir tashuvchida bir xil logotipni takrorlagani uchun emas, balki uning har bir xabari bir xil tamoyil asosida qurilgani uchun tanib olinadi: texnologiya odamlarga yordam berish uchun mavjud.



Aa Bb Šš
Цц O'о' Kk



Data Blue	Core Blue	Terminal Black	Cloud Grey	Optical White
HEX #004491 RGB 0, 68, 145 CMYK 100, 64, 0, 16 Pantone 2945 C RAL 5017 Oracal 057	HEX #001C39 RGB 0, 28, 57 CMYK 100, 72, 0, 73 Pantone 282 C RAL 5026 Oracal 050	HEX #00050A RGB 0, 5, 10 CMYK 100, 61, 32, 96 Pantone Black 6 C RAL 000 15 00 Oracal 562	HEX #B0B7BF RGB 176, 183, 191 CMYK 29, 19, 15, 0 Pantone 4274 C RAL 9006 Oracal 090	HEX #FFFFFF RGB 255, 255, 255 CMYK 0, 0, 0, 0 Pantone — RAL 9016 Oracal White





 Uztelecom



 Uztelecom



 Uztelecom



12 000 000
абонентов



Uztelecom



пакет PUBG Mobile 100 000 CUM
играйте с преимуществом



100 GB 3 ПРОМОКОДА
PUBGM UC



Uztelecom



Uztelecom



календарь
подарков

С 1 ПО 31 ДЕКАБРЯ ОТКРЫВАЙТЕ КОРОБОЧКИ
В ПРИЛОЖЕНИИ И ПОЛУЧИТЕ ШАНС
ВЫИГРАТЬ СУПЕРПРИЗ



день КОНСТИТУЦИИ




 Uztelecom

Uztelecom стал
генеральным партнёром
ICTWEEK




 Uztelecom

СВЯЗЬ ПОСЛЕДНЕГО
ПОКОЛЕНИЯ




домашний
беспроводной интернет

 Uztelecom



SIM, eSIM

Подключение
мобильной связи



ОФОРМИТЬ ЗАКАЗ

 Uztelecom

Расстояния больше не имеют значения


Специальные условия в роуминге

 Uztelecom



Uydagi barcha
qurilmalar uchun

Barqaror optik tezlik



Uydagi
barcha
qurilmalar
uchun

Barqaror optik tezlik



Uydagi barcha
qurilmalar uchun

Barqaror optik tezlik



Uydagi barcha
qurilmalar uchun

Barqaror optik tezlik





Играйте с преимуществом.
Везде.





Ulash uchun yaratilgan
yechimlar



Technologies for everyone

 Uztelecom





Cheksiz kino olami
va sevimli kanallaringiz

5 tagacha qurilmada oliy sifatda
bahramand bo'ling

 Uztelecom

 Uztelecom

Yaqinlar bilan suhbat —
daqiqalar hisobsiz

Звоните любимым, не считая минуты



Cheksiz aloqa

 Uztelecom